

Ucell mobil ilovasi foydalanuvchilari uchun "Quyoshli gigabaytlar!" aksiyasida ishtirok etish bo'yicha ommaviy oferta

"Quyoshli gigabaytlar!" aksiyasi (keyingi o'rinlarda — Aksiya) yangi va mavjud Ucell mobil ilovasi foydalanuvchilari o'rtasida o'tkaziladi.

Aksiya davomida Ucell mobil ilovasi foydalanuvchisi (keyingi o'rinlarda — Foydalanuvchi) Ucell abonent raqami balansini Ucell mobil ilovasi orqali bir martalik tarzda **15 000 so'm va undan ortiq** miqdorda to'ldirganda **30 kunga 100 GB internet-trafik (keyingi o'rinlarda — Internet-paket)** taqdim etiladi.

Internet-paketni olish uchun foydalanuvchi mobil ilovada bank kartasini (agar u hali bog'lanmagan bo'lsa) bog'lashi va Ucell abonent raqami balansini to'ldirishi lozim.

Internet-paket balans to'ldirishni amalga oshirgan abonentga taqdim etiladi.

1. Aksiyada ishtirok etish shartlari:

1.1. Aksiya davomida hali Ucell mobil ilovasi foydalanuvchisi bo'lmagan abonentlar ro'yxatdan o'tib, ilovaga kirishi lozim.

Eslatma: Agar Ucell mobil ilovasi o'rnatilmagan yoki eskirgan bo'lsa, Play Market (Android) yoki App Store (iOS) orqali ilovani yuklab olish yoki yangilash va ro'yxatdan o'tish/ilovaga kirish lozim.

1.2. Ilovaga muvaffaqiyatli kirgandan so'ng quyidagi usullardan birini tanlash lozim:

- **1-usul:** «To'ldirish» tugmasini bosib, menyudan «Hisob to'ldirish» bandini tanlash.
- **2-usul:** «Moliya» bo'limini ochib, «Mobil aloqa»ni tanlab, operator sifatida «Ucell»ni ko'rsatish.
- **3-usul:** «Moliya» bo'limining «Hisobni to'ldirish» bo'limiga kirish.

To'lov formasida Ucell abonent raqamini, 15 000 so'm va undan yuqori miqdorni kiritish va «Hisobni to'ldirish» tugmasini bosish kerak.

Eslatma: Agar ilgari karta bog'lanmagan bo'lsa, «Moliya» bo'limida «Yangi kartani bog'lash» tugmasi orqali bog'lash kerak.

1.3. Yuqoridagi bandlardagi shartlar bajarilganda abonent avtomatik tarzda Aksiya ishtirokchisi hisoblanadi va 30 kunga 100 GB internet-trafik oladi.

1.4. Yuqoridagi bandlarni bajarish ushbu ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilish hisoblanadi.

1.5. Oferta qabul qilinishi barcha shartlarning to'liq va cheklovsiz qabul qilinganligini bildiradi.

1.6. Oferta qabul qilinishi ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlagan hisoblanadi:

- oferta shartlari bilan to'liq tanish, rozilik bildiradi va ularga rioya qiladi;
- oferta mazmuni unga tushunarli;
- huquqiy va layoqatga ega va ofertani qabul qilishga qonuniy huquqi bor.

2. Aksiya o'tkazish shartlari:

2.1. Aksiya muddati: 21.07.2025 — 31.08.2025

2.2. Aksiya Prepaid tizimidagi yangi va mavjud Ucell abonentlari ishtirok etadi.

2.3. Bonus 100 GB qoldiqlarini tekshirish usullari:

- Ilovaning bosh sahifasida «Paketlar qoldig‘i» bo‘limida.
- USSD *107# so‘rovi orqali. Ko‘rsatilgan qoldiq barcha internet sessiyalari yopilgan vaqtdagi haqiqiy holatdir.

2.4. Bir abonent faqat bir marta internet-trafik oladi.

2.5. Ushbu aksiya doirasidagi internet-trafik boshqa tariflar yoki xizmatlar bilan qo‘shilmaydi va faqat muddat tugashigacha amal qiladi.

2.6. Trafik faqat faol statusda ishlatiladi.

2.7. Muddati tugaganda qoldiq trafik bekor qilinadi.

2.8. Trafik birinchi navbatda sarflanadi. Boshqa paketlar yoki tariflar bor bo‘lsa, avval Aksiya trafikidan foydalaniladi.

2.9. Trafik faqat 15 000 so‘m va undan ortiq bir martalik to‘lov qilgan foydalanuvchiga taqdim etiladi.

2.10. Trafik avtomatik tarzda ilovada aks ettiriladi.

3. Trafik ulash ssenariysi:

3.1. Yangi foydalanuvchilar ilovaga ro‘yxatdan o‘tib kirishi kerak. Mavjud foydalanuvchilar abonent raqami bilan kiradi.

***Eslatma:** Ilova o‘rnatilmagan yoki yangilanishi kerak bo‘lsa, Play Market yoki App Store orqali yangilash lozim.*

3.2. Balans 15 000 so‘m va undan ortiq miqdorda bog‘langan karta orqali to‘ldiriladi (1.2. bandga muvofiq).

3.3. To‘lov amalga oshirilgandan so‘ng ilovada mablag‘ tushgani ko‘rsatiladi.

3.4. Aksiya shartlari bajarilgach, internet-paket ulanishi haqida ilovada xabarnoma chiqadi.